


ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ПЕДАГОГИКА КАФЕДРАСИ
ПЕШКУ ТУМАНИ 2-СОН КАСБ-ҲУНАР МАКТАБИ

ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА
ДУАЛ ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ
ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА РИВОЖЛАНИШ
ОМИЛЛАРИ

Республика илмий-амалий конференция материаллари



Бухоро-2021

- 1

Конференция Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 2 март 78-Ф-сонли фармоиши асосида ташкил этилди.

КОНФЕРЕНЦИЯНИНГ ДАСТУРИЙ ҚЎМИТАСИ

Б.К.Зарипов	-	Бухоро вилояти ҳокими
М.М.Холмухаммедов	-	Олий ва ўрта махсус таълим вазири ўринбосари
Т. Р.Чориев	-	Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси депутати.
К.М.Муқимов	-	Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси академиги
Ҳ. Ҳ.Қобилов	-	Бухоро вилоят касбий таълимни ривожлантириш ва мувофиқлаштириш ҳудудий бошқармаси бошлиғи:
З.Я.Худайбердиев	-	Педагогик инновациялар касб-хунар таълими бошқарув ҳамда педагог кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш институти ректори
О.Х.Хамидов	-	Бухоро давлат университети ректори.
Н.Р.Баракаев	-	Бухоро муҳандислик технология институти ректори.
Ш.Ж.Тешаев	-	Бухоро давлат тиббиёт институти ректори.
Ш.Ж.Имомов	-	Тошкент ирригация ва меллиорация институти Бухоро вилояти филиали директори техника фанлари доктори профессор
Н.А.Нуралиев	-	Тиббиёт фанлари доктори, профессор
О.С.Қаҳҳоров	-	Бухоро давлат университети илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор
Б.Р.Адизов	-	Бухоро давлат университети ҳузуридаги ПКҚТ МО минтақавий марказ директори, п.ф.д., профессор
М.З.Шарипов	-	Бухоро муҳандислик технология институти илмий ишлар проректори
Ш.Ш.Олимов	-	Бухоро давлат университети педагогика кафедраси мудир педагогика фанлари доктори профессор
Д.Р.Раҳматуллаева	-	Педагогик инновациялар институтининг “Таълимда бошқарув” кафедраси доценти, п.ф.ф.д
Я.Я.Раҳматов	-	Бухоро вилоят касбий таълимни ривожлантириш ва мувофиқлаштириш ҳудудий бошқармаси бошлиғи ўринбосари.
Ш.А.Ҳайитов	-	Бухоро давлат университети жаҳон тарихи кафедраси профессори, тарих фанлари доктори
Ҳ.Х.Ҳакимжонова	-	Педагогик инновациялар институти, “Таълимда бошқарув” кафедраси катта ўқитувчиси
М.Ҳ. Маҳмудов	-	Бухоро давлат университети профессори п.ф.д
Б.Х.Маҳмудов	-	Пешку туман 2-сон касб-хунар мактаби директори.
Б.Қ.Хўжаев	-	Бухоро давлат университети Педагогика кафедраси доценти, п.ф.н
Э.М.Мухторов	-	Бухоро давлат университети педагогика факултети декани психология фанлари номзоди
С.Қ.Қаҳҳоров	-	Бухоро давлат университети касаба уюшма қўмитаси раиси
Н.Бекова	-	Бухоро давлат университети Ўзбек филологияси кафедраси доценти, ф.ф.н.

Литературы

1. Петрова К.С. Анализ программных средств трехмерной компьютерной графики и анимации. М.: ИИО РАО. 2009.
2. Islomovna M. D. DIDACTIC CONDITIONS FOR ACHIEVING STUDENTS'SELF-EFFICACY THROUGH THE USE OF ICT IN DRAWING LESSONS //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 12.

MAHMUD TAROBIYNING MILLIY OZODLIK YO'LIDAGI KURASHI

A.I.To'rayev- BuxDu Jahon tarixi kafedراسи o'qituvchisi

S.F.Xayrullayev - Tarix 2-bosqich талабаси

Tarixdan ma'lumki, XIII asr boshlarida Chingizxon boshchiligidagi Mo'g'ullar qo'shini yurtimiz hududlariga bostirib kirib, obod shahar va qishloqlarimizni vayron qilishdi. Ko'rkam va gavjum shaharlar xarobazorga aylandi. Bir qancha shaharlar suvsiz qoldirildi, boshqalari esa suv ostiga qoldirilib, vayron qilindi. Natijada Movarounnahr va Xorazm aholisi kamayib, dehqonchilik inqirozga uchrab, Musulmon renesansining birinchi davri to'xtab qoldi.

1220-yil fevral oyida mo'g'ullar Buxoroi sharifni ham bosib olishdi va katta qirg'in o'tkazishdi. Bosqinchilarga qarshi xalqimizning ozodlik kurashi va qo'zg'olonlari muttasil davom etib turdi. Shunday kurashlar ichida 1238-yilda Chig'atoy ulusi tarkibidagi Buxoroda mo'g'ullar istilosi va zulmiga qarshi ko'tarilgan yirik xalq qo'zg'aloni muhim ahamiyat kasb etdi. Qo'zg'alon 1238-yil (hijriy 630-yil)da Buxorodan uch farsax masofada (hozirgi Buxoro viloyatining Jondor tumani hududida) joylashgan Tarob qishlog'ida chit to'quvchi hunarmand Mahmud Tarobiy rahnamoligida bo'lib o'tdi va bu harakat butun Buxoro bo'ylab yoyildi.

Mahmud Tarobiy Tarob atrofidagi Reza qishlog'ida, oddiy kosib hunarmand oilasida dunyoga kelgan. U g'alvirchilik bilan shug'ullangan, bundan tashqari bemorlarni ko'chiriq orqali davolaydigan tabib va duoxon hamda xalq orasida katta nufuzga ega, tasavvuf g'oyalari bilan tanish shaxs edi. Bu haqida Tojikistonlik, SSSR fanlar akademiyasining akademigi Bobojon G'afurov: "Qo'zg'alon rahbari Taroblik Mahmud elak to'quvchilarning peshqadami edi. U Tarob ko'chalarida, uning atrofidagi qishloqlarda mo'g'ullarga qarshi g'azabli nutqlar so'zlar, ommani istilochilarga qarshi kurashga da'vat etar edi"⁴⁹, deb yozadi.

Mahmud Tarobiy Buxoroda mo'g'ullarga qarshi boshlangan qo'zg'alonga mashhur ulamo Shamsuddin Mahbubiyning taklifi bilan rahbarlik qilgan. Mahbubiyning o'zi esa bu qo'zg'aloning g'oyaviy rahnamosi sifatida qo'zg'alonchilarni qo'llab-quvvatlaydi. Qo'zgalonda Mahmudning tabib va duoxon opasi, singlisi Sangina va ikki ukasi Muhammad va Ali Tarobiyilar ham faol ishtirok

⁴⁹ Рахмонов Т. Махмуд Таробий – халқ қахрамони/ Т. Рахмонов, Н. Рахмонов, // Jondor ovozi : Бухоро. – 2018. – 19 июль. (№ 29). – Б. 3.

etadilar. Mahmud qishloqqa tutash, mahobatli, ulkan tepada (hozirda bu joy Mahmud Tarobiy tepaligi deb yuritiladi) o'rnashgan hunarmandlar ustaxonasida bir guruh maslakdoshlarini to'plab, oddiy mehnat qurollari yasash bilan birga, dushmandan o'cholishga yarog'li qurol-aslaha va anjomlarni yashirin tarzda tayyorlashga e'tibor qaratadi. Shuningdek, mo'g'ul ayg'oqchilariga sezdirilmagan holda ushbu hududda to'plangan, uncha katta bo'lmagan qo'shinga boshchilik qilib, safdoshlariga jang qilish sirlarini egallashlari uchun rahnamolik qildi.

Qo'zg'alonchilar kengashib, Buxoroga qarab yurishadi va shahardagi Malik Sanjar qasri (1206-yilda Buxoroda hunarmandlar tomonidan xorazmshohlarga qarshi ko'tarilgan qo'zg'alon rahbari-qalqon yasovchi hunarmandning o'g'li Malik Sanjar qurdirgan) ni egallab, uni o'zlariga qarorgoh qilib olishadi. Qo'zg'alon rahbari Mahmud Tarobiy istedadli tashkilotchi, mohir harbiy qo'mondon bo'lib, o'zining dadilligi va jur'ati bilan tarqoq qo'zg'alonchilarni ortidan ergashtira oldi. Ularning saflariga Buxoroda ham ko'plab tarafdorlar va maslakdoshlar kelib qo'shiladi. Mahmud Tarobiy atrofida xalq birlashuvining asosiy sababi keng ijtimoiy nochorlik edi.

Buxoro va atrof viloyatlardagi xalq ommasini tomonidan qo'llab-quvvatlangan qo'zg'alon dastlab muvaffaqiyatli davom etadi. Qo'zg'alonchilar shahar shimolidagi Abu Xafs tepaligida mustahkam o'rnashib oladilar. Ular dastlab mo'g'ul bosqinchilari va yog'iy xizmatiga o'tgan mahalliy ma'murlarni o'ldirib, mol-mulkini beva-bechoralarga taqsimlab berishadi. Buxoro butunlay qo'zg'alonchilar qo'liga o'tadi. Mahmud Tarobiy shahardagi Robiya saroyiga joylashadi va xalq uni sulton qilib ko'tarishadi. Registon maydonida g'alaba sharafiga katta marosim o'tkaziladi. Qo'zg'alonchilar yetakchisi Mahmud Tarobiy nomiga xutba o'qilib, "Millat xaloskori"⁵⁰ deb e'lon qilinadi. Marosim so'ngida Mahmud Tarobiy butun voha ahlini yovga qarshi hal qiluvchi kurashga undab, qasamyod qiladi. Bosh sadr Burhoniddin Mahmud Tarobiyning talabi bilan Shamsuddin Mahbubiy shahar sadri etib tayinlaydi. Mo'g'ul qo'shinlari va bosqoqlari bu paytda Karmanaga qochib, shoshilinch kuch to'play boshladilar. Qo'zg'alonchilar mo'g'ullarni quvib, Karmanagacha bordilar.

Mahmud Tarobiy boshchiligidagi qo'zg'alonchilar bilan mo'g'ullar o'rtasida kechgan eng shiddatli va halqiluvchi jang Karmanadan yuz chaqirim olisdagi Qizilqum vohasida bo'lib o'tadi⁵¹. Dushman son jihatdan bir necha barobar ko'p bo'lsa-da, katta talofatlar ko'rib mag'lub bo'la boshlaydi. Ammo markazdan yetib kelgan madad kuchlarigina dushmanning joniga oro kiradi. Bir necha kun davom etgan ayovsiz bu jangda qo'zg'alonchilar mag'lub bo'ldi. Bu jangda Mahmud Tarobiy va Shamsuddin Mahbubiylar nohosdan daydi o'q tegib, halok bo'ladilar. Biroq buni qo'zg'alonchilar sezishmaydi. Bu holatni Mirzo Ulug'bek quydagicha tasvirlaydi: "Bu lahzada shamol-to'zon ko'tarilib, Odamlar bir-birini tanimay qoldi.

⁵⁰ Рахмонов Т. Махмуд Таробий – халқ қаҳрамони / Т. Рахмонов, Н. Рахмонов, // *Jondog ovozi* : Бухоро. – 2018. – 19 июль. (№ 29). – Б. 3.

⁵¹ Махмуд Махкам. Махмуд Таробий - халқ халаскори / Махмуд Махкам.; Махмуд Махкам // *Мулоқот*. - 2000. - № 6. - Б.51-52.

Mo'g'ul lashkarlari esa buni shayx Mahmud Tarobiyning karomatiga yoyib, jangni to'xtatib, chekingan"⁵². Jangdan keyin Mahmud Tarobiy omon topmagan xaloyiq: "Shayximiz ko'zdan g'oyib bo'lishni istadilar. O'rniga lashkarboshi zarur" deb, Tarobiyning ukasi Alini o'zlariga sardor etib belgilaydilar.

Mo'g'ullar bu xabarni noib Mahmud Yalovochga yetkazadilar. Mahmud Yalovoch esa borgapni Beshbalig' shahriga, O'qtoy xon qo'l ostidagi Qorachor no'yonga yetkazadi. Qorachor no'yon esa Eldo'z no'yon va Chag'an qo'rchi boshliq hisobsiz lashkarni Buxoroga safarbar etadi. Jang Karmana yaqinidagi Raboti Malik (hozirgi Navoiy viloyati Karmana tumani hududi)da bo'lib o'tdi⁵³. Bu jangda qo'zg'alonchilar yengildi. Sababi shuki, qo'zg'alonchilarga qarshi mo'g'ullarning katta harbiy kuchi tashlangan edi. Bu qo'shin mukammal qurollangan, urush hadisini olgan ulkan armiya edi. Xalq esa bunday qurollar va harbiy tayyorgarlikka ega emas edi. Buning ustiga, qozg'alon rahbari Alida harbiy tayyorgarlik va yo'l boshchilik iste'dodi yo'q edi. U kurashda halok bo'ldi. Isyonchi xaloyiq umuman yo'l boshchisiz qolib, parokandalikka uchradi. Bu jangda har ikki tomondan 21 ming odam nobud bo'ldi. Qo'zg'alon shafqatsizlik bilan bostirildi. Mo'g'ul bosqoqlari Buxoroga kirib, shahar va uning atrofidagi kishilarni talash va o'ldirishga kirishadilar. Xo'jandda turgan mo'g'ullar noibi Mahmud Yalovochning bu yerga kelishi bilan Buxorodagi qirg'in to'xtatiladi.

Shunday qilib, Mahmud Tarobiy boshchiligidagi qo'zg'alon yengilgan bo'lsa-da, tarixda chuqur iz qoldirdi va izzat ketmadi. Bu qo'zg'alon xalqning haqiqiy kuchini ko'rsatdi. Natijada Mo'gul ma'murlari mahalliy aholi bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishdi, o'lpon va soliqlarni kamaytishdi, ma'lum muddat bo'lsada o'zboshimchaliklarga chek qo'yishdi. Chig'atoy ulusi mo'g'ul xonlari nomidan boshqargan Mahmud Yalovoch va uning o'g'li Ma'sud Yalovochlar bu paytda ham xoqonlar manfaatini ko'zlagan holda, ham mahalliy xalqqa xayrixoh bo'lgan nozik siyosat olib borishadi.

Xullas, Mahmud Tarobiy Mo'g'ullarga qarshi Buxoro va Karmana o'rtasida bo'lgan jangda halok bo'ladi. U tugilgan qishlog'i Tarobda dafn etiladi. Uning qabri ustida XIII asrda qurilgan daxma, XX asrning 80-yillari o'rtasida islom diniga qarshi ommaviy kurash boshlangan paytda sho'ro rahbarlarining buyrug'i bilan buzib tashlanadi.

MATONI BEZASH SAN'ATI TARIXI VA USLUBLARI (ISSIQ, SOVUQ, TUGUNLI BATIK)

V.R. Tuxsanova - BuxDU Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi

Dekorativ san'atning ijtimoiy moyihati-uning kollektiv mahoratining mahsuli ekanligidir, u nasllardan -nasllarga me'ros bo'lib o'tgan va o'zida bir qator

⁵² Сафаров М. Махмуд Таробий// Халқ сўзи. – 2000. – 11 ноябр .

⁵³ Ражабов К.Ражабов К. Махмуд Таробий - хунарманд, табиб ва саркарда/ К. Ражабов // Бухоро мавжлари. - 2007. - №2. - Б. 8

методларининг аҳамияти		
ГАФФАРОВ Х.Р., САВРИЙЕВ Й.С., АЗИЗОВ Б.А., СЕВИНОВ У.Б.	Пахта чигити кунжарасини муаллақ ҳолатда кўп босқичли мой олиш	284
АМИНОВ А.Ш., ҚУЛМАНМАТОВ В.Г'.	аxborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi.	292
ЭЛМУРОДОВ А.С.	Автоматизированное управление ковроткацким станком	295
РАХМАТУЛЛАЕВА Д.	Профессионал таълим муассасалари ўқитувчиларида тадбиркорлик компетенцияларини шакллантириш	298
ШАРИПОВ Ж.О.	Влияние антифрикционных алмазоподобных (dlc) покрытий на надежность процесса фрезерования без сож хромовых сплавов	300
МИРЗОЕВА И.Э., МИРЗОЕВА О.Э.	География дарсларида инновацион ва педагогик технологиялардан фойдаланиш	303
ОРЗИЕВ М.З., ҲОЖИМУРОДОВ Ж.Э.	Россия-Афғонистон: XX аср бошларида сиёсий ва иқтисодий муносабатлар тарихидан	306
ҒОФУРОВ М.	Технологик таълим тизимининг моддий-техник таъминотини мустаҳкамлаш.	311
ХАСАНОВ Х.	Электромагнитная сверхсжимаемость	314
НУРИДДИНОВА Н.З.	Как выучить русский язык	326
НАЗАРОВА З.И.	Таълим жараёнида зиёрат туризмини ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари: имконият, муаммо ва ечимлар	329
МАМАТОВ Д.Қ.	Мактабда chizmachilik darslarida “Buyum modelini yasash” orqali o’quvchilarning fazoviy tasavvurlarini shakllantirish.	331
МУСИНОВА А.С., ФУЛОМОВ Ш.Ж.	Мис идишларни яшашнинг техник усули	332
ABDURAZOQOVNA N.R., RAHMATOVA Z.SH.	O’rta asrlarda rassom miniaturachilarni o’qitish metodlari tarixidan	335
МАМУРОВ И., МАМУРОВА Д.И., АСРОРОВА М.	Coreldraw — незаменимый помощник профессионалов	337
ТО’РАҲУЕВ А.И. ХАЙРУЛЛАҲУЕВ С.Ф.	Mahmud Tarobiyning milliy ozodlik yo`lidagi kurashi	339
TUXSANOVA V.R.	Matoni bezash san’ati tarixi va uslublari (issiq, sovuq, tugunli batik)	341
DJURAYEVA L.R.	Innovatsion pedagogik faoliyatning ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyati	343
АБДУРАХМОНОВ О.Р., САИДОВА М.Б.	Автоматизированное управление уровнем при производстве чистой воды	348